



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 22 - may

I-58-91-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tumanida “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalar xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlarni (suv isitish qurilmasi) o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 28-apreldagi 250-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalar xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlarni (suv isitish qurilmasi) o‘rnatish bo‘yicha tuman sektor rahbarlarining takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatovning “Yangihayot tumanida “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalar xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlarni (suv isitish qurilmasi) o‘rnatish to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalar xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlarni (suv isitish qurilmasi) o‘rnatish to‘g‘risidagi 1-sektorning 2023-yil 16-maydagri 01/148-sonli, 2-sektorning 2023-yil 15-maydagri 27/27-08-sonli, 3-sektorning 2023-yil 15-maydagri 27/59-c-45-sonli va 4-sektorning 2023-yil 15-maydagri 24-06286-sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlar (suv isitish qurilmasi) o‘rnatiladigan “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘limi (A.Abdumajidov)ga:

ilovada ro‘yxatlari ko‘rsatilgan “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalar xonadonlariga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan geliokollektorlarni (suv isitish qurilmasi) xarid qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov tomonidan, mazkur farmon ijrosini samarali tashkil qilish, ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni har oyda muhokama qilib borish hamda mas’ullar bilan muvofiqlashtirish ishlarini nazoratga olinsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (S.Vafayev) ijrosini ta‘minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari (X.Tashpulatov, A.Nurmatov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashining
2023 yil 22 maydagi
I-58-91-14-220-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Xonadonlariga kichik quvvatli geliokollektorlar (suv isitish qurilmasi)
o'rnatiladigan "Temir daftar"ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarining ro'yxati**

№	Sektor	“Temir daftar”dagi fuqaro F.I.Sh.	Fuqarolarning F.I.Sh	O'rnatiladigan geliokollektorlar(suv isitish qurilmasi)	
				Quvvati (litr)	Qiymati (mln. so‘m)
1.	1	“Choshtepa”	Muxametshin Gennadiy Gabbasovich	100	9
2.	1	“Yangi Darxon”	Abduraximboyeva Irisgul XXX	100	9
3.	1	“Choshtepa”	Aripova Feruza Akbarovna	100	9
4.	2	“Yo‘ldosh”	Iminova Naima Abduvalievna	100	9
5.	2	“Yo‘ldosh”	Velkel Rudolf XXX	100	9
6.	2	“Al-Farg‘oniy”	Shafina Tanzilya Xazievna	100	9
7.	2	“Al-Farg‘oniy”	Yuldoshev Raxmatulla Zokirovich	100	9
8.	3	“Xumo”	Xamadiyarova Dilyaram Yadgarovna	100	9
9.	3	“Xumo”	Islamova Zuxra Karimovna	100	9
10.	3	“Olchazor”	Yigitalieva Ulfatoy Begalievna	100	9
11.	3	“Olchazor”	Uktamov Abdujalil Maxmudovich	100	9
12.	4	“Toshkent”	Ruziyeva Maxliyo Rustam qizi	100	9
13.	4	“Gulzor”	Kasimova Nargia Shakirjanova	100	9
14.	4	“Xo‘ja Uchqun”	Kalbolayeva Gulnora Anorboy qizi	100	9
15.	4	“Xushnud”	Amanov Shuxrat Qodirali O‘g‘li	100	9